NATIONAL QUALITY ASSURANCE AGENCY FOR EDUCATION

NQAAE

UNDER THE ADMINISTRATION OF THE PRESIDENT OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI

TA’LIM SIFATINI TA’MINLASH MILLIY AGENTLIGI

TA’LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O‘TKAZISH BO‘YICHA

YAKUNIY HISOBOT

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

Davlat oliy ta’lim tashkiloti

60230400 – Kompyuter lingvistikasi

Bakalavriat

www.nqaae.uz

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI TA’LIM SIFATINI TA’MINLASH MILLIY AGENTLIGI

60230400 – Kompyuter lingvistikasi

TA’LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O‘TKAZISH BO‘YICHA YAKUNIY HISOBOT

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI

	**Rais: ABDURAXMONOVA NILUFAR ZAYNOBIDDIN QIZI** **Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti** **fan doktori (DSc)**
	**A’zo: KEVIN ANDREAS KOIDL** **Trinity College Dublin (Irlandiya)** **falsafa doktori (PhD)**

1. UMUMIY MA’LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260112
Xulosa raqami	1604
Xulosa sanasi	22.07.2026
Ta’lim tashkilotining to‘liq nomi	“MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI” DAVLAT MUASSASASI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma’lumotlari	Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Amir Temur Shox ko‘chasi, 108-uy. Litsenziya: № 10-000825, 20.01.2003. Guvohnoma: MAS № 0000488, 07.08.2026.
Baholangan ta’lim dasturi nomi	Kompyuter lingvistikasi
Yo‘nalish / mutaxassislik kodi	60230400
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo‘lgan normativ-huquqiy hujjat:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta’limdan keyingi ta’lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish tizimini joriy etish to‘g‘risida” 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “O‘rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta’limdan keyingi ta’lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O‘rta maxsus, kasbiy, oliy ta’limni va oliy ta’limdan keyingi ta’limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlarida ta’lim dasturlari bo‘yicha o‘quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA’LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta’lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: *License/Certificate of Educational Institution:*	№ 10-000825, 20.01.2003
2. Ta’lim tashkilotining turi: *Type of Educational Institution:*	Davlat oliy ta’lim tashkiloti
3. Ta’lim dasturi kodi va nomi: *Code and Name of Study Programme:*	60230400 – Kompyuter lingvistikasi
4. Ta’lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: *Name of Study Programme in English:*	60230400 – Computational Linguistics
5. Ta’lim dasturining rus tilida nomlanishi: *Name of Study Programme in Russian:*	60230400 – Компьютерная лингвистика
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: *Offered in Cooperation with:*	—
7. Ta’lim tili: *Medium of Instruction:*	o‘zbek / rus
8. Ta’lim shakli: *Mode of Study:*	kunduzgi
9. Ta’lim dasturi hajmi: *Study Programme Credits:*	240 kredit
10. Ta’lim dasturi davomiyligi: *Duration of Study Programme:*	4 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: *Level in National Qualifications Framework:*	6-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: *Qualification Title:*	Raqamli tilshunos
13. Qo‘shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: *Additional Qualifications Awarded:*	—
14. Ta’lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: *Type of Document Issued Upon Completion:*	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta’lim oluvchilarning me’yoriy miqdori (to‘liq davr): *Maximum Number of Students (full period):*	200 nafar
16. Ta’lim dasturini o‘qitish manzili: *Address Where the Study Programme is Delivered:*	Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Amir Temur Shox ko‘chasi, 108-uy

4. BAHOLASH YO‘NALISHLARI VA MEZONLAR BO‘YICHA NATIJALAR

Har bir yo‘nalish bo‘yicha baho (muvofiq / muvofiq emas) va har bir mezon bo‘yicha baho (muvofiq / qisman muvofiq / muvofiq emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo‘nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	**Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta’minlash**	**Muvofiq**
1.1.	*ta’lim dasturini amalga oshirish bo‘yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;**	Muvofiq
1.2.	*ta’lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta’minlash bo‘yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;*	Muvofiq
1.3.	*ta’lim dasturi doirasida sifatni ichki ta’minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta’minlangani;*	Muvofiq
1.4.	*mehnat bozori va ta’lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so‘nggi tendensiyalarini aniqlash bo‘yicha monitoring tizimining mavjudligi;*	Muvofiq
2.	**Ta’lim dasturlari**	**Muvofiq**
2.1.	*manfaatdor tomonlar ishtirokida ta’lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta’lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta’lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;**	Muvofiq
2.2.	*ta’lim dasturining milliy ta’lim tizimidagi ustuvor yo‘nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;*	Muvofiq
2.3.	*ta’lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta’minlangani;*	Muvofiq
3.	**O‘quv jarayonini tashkil etish va o‘quv natijalarini baholash**	**Muvofiq**
3.1.	*ishchi o‘quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;**	Muvofiq
3.2.	*o‘quv jarayonining ta’lim dasturida belgilangan o‘quv natijalariga erishishga yo‘naltirilgani;**	Muvofiq
3.3.	*o‘quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;*	Muvofiq
3.5.	*ta’lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o‘quv natijalariga muvofiqligi;*	Muvofiq
3.6.	*talabalarning baholash natijalari bo‘yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;*	Muvofiq
3.7.	*ta’lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo‘yicha samarali tizimning mavjudligi;**	Muvofiq

№	Baholash yo‘nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	**Talabalar faoliyati**	**Muvofiq**
4.1.	*ta’lim dasturi bo‘yicha qabul talablari aniq belgilangani, o‘qishga qabul qilish shaffof tarzda yo‘lga qo‘yilgani;*	Muvofiq
4.2.	*qabul parametrlarining ta’lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;**	Muvofiq
4.3.	*talabalarning o‘qishini ko‘chirish, kursdan-kursga o‘tkazish (qoldirish), o‘qishdan chetlashtirish va o‘qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;**	Muvofiq
4.4.	*talabalarni qo‘llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;*	Muvofiq
5.	**Inson resurslari**	**Muvofiq**
5.1.	*ta’lim dasturi uchun belgilangan me’yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko‘rsatuvchi va o‘quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;**	Muvofiq
5.3.	*yangi ta’lim dasturlari bo‘yicha o‘quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta’minlash bo‘yicha aniq rejaning mavjudligi;**	Muvofiq
5.4.	*kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish tizimining mavjudligi;*	Muvofiq
6.	**Moddiy-texnik ta’minot**	**Muvofiq**
6.1.	*ta’lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg‘ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo‘llanma (ko‘rsatma)lar bilan ta’minlangani;**	Muvofiq
6.2.	*fanlar kesimida o‘quv va o‘quv-metodik adabiyotlar, elektron ta’lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta’minlangani;**	Muvofiq
6.3.	*o‘quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta’lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta’minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;**	Muvofiq
6.4.	*inklyuziv ta’lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o‘quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;*	Muvofiq
6.5.	*axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta’lim dasturlariga mos o‘quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta’minlangani, o‘quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;**	Muvofiq

№	Baholash yo‘nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	*raqamli ta’lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta’lim imkoniyatlari);*	Muvofiq
6.7.	*ta’lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.*	Muvofiq

5. BAHOLASH YO‘NALISHLARI (BOB) BO‘YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta’minlash yo‘nalishi

Ta’lim dasturini samarali amalga oshirish uchun zarur tashkiliy-boshqaruv tizimi shakllantirilgan bo‘lib, mas’ul tarkibiy tuzilmaning vakolatlari, vazifalari va funksiyalari universitet nizomi hamda dastur maqsadlariga muvofiq belgilangan. Universitetning 2026–2030-yillarga mo‘ljallangan strategik rivojlanish rejasida ta’lim sifatini oshirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish, raqamlashtirish va moliyaviy barqarorlikni ta’minlash ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilangan. Mazkur strategik maqsadlarning bajarilishini muntazam monitoring qilish, erishilgan natijalarni tahlil etish va tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilish mexanizmlari nazarda tutilgan. O‘quv-uslubiy jarayonlarni tashkil etish va ichki sifat nazoratini amalga oshirish tartiblari amaldagi me’yoriy talablar asosida yo‘lga qo‘yilgan. Strategik reja ijrosini tizimli kuzatish va baholash orqali ta’lim dasturining barqaror rivojlanishi hamda sifatini izchil takomillashtirish uchun zarur sharoitlar yaratilgan. Umuman olganda, tashkiliy-boshqaruv tizimi, strategik rejalashtirish va ichki sifatni ta’minlash mexanizmlari belgilangan akkreditatsiya talablari hamda sifat mezonlariga muvofiq deb baholandi.

2-bob. Ta’lim dasturlari yo‘nalishi

Ta’lim dasturining maqsadlari va kutilayotgan ta’lim natijalari xalqaro ta’lim standartlari, O‘zbekistonning barqaror rivojlanish ustuvor yo‘nalishlari, davlat tomonidan tasdiqlangan malaka talablari hamda mehnat bozori ehtiyojlariga muvofiq shakllantirilgan. Dastur mazmunida kredit-modul tizimi va dual ta’lim tamoyillari inobatga olingan bo‘lib, nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish, talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish va ish beruvchilar bilan hamkorlikni mustahkamlashga alohida e’tibor qaratilgan. Tilshunoslik nazariyasi, dasturlash texnologiyalari va sun’iy intellekt usullarining o‘zaro integratsiyasi orqali talabalarning til ma’lumotlarini qayta ishlash, lingvistik

jarayonlarni modellashtirish va zamonaviy raqamli yechimlarni ishlab chiqish ko‘nikmalarini shakllantirish nazarda tutilgan. O‘quv fanlarining mazmuni va o‘zaro uzviyligi fundamental bilimlar bilan birga amaliy, tahliliy va texnologik kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Umuman olganda, ta’lim dasturining mazmuni, maqsadlari, kutilayotgan natijalari va amaliy tayyorgarlik yo‘nalishlari belgilangan akkreditatsiya talablari hamda sifat mezonlariga muvofiq deb baholandi.

3-bob. O‘quv jarayonini tashkil etish va o‘quv natijalarini baholash yo‘nalishi

Talabalar bilimini baholash va o‘quv jarayoni sifatini nazorat qilish uchun zarur tartib hamda mexanizmlar ishlab chiqilgan. Imtihonlarni tashkil etish va baholash jarayonlari tegishli prorektor tomonidan tasdiqlangan tartib hamda vazirlikning talabalar bilimini baholashga oid me’yoriy hujjatlari asosida amalga oshiriladi. O‘quv jarayoni sifatini baholash, monitoring qilish va natijalarni tahlil etish mezonlari universitetning ichki me’yoriy hujjatlarida aniq belgilangan. Baholash jarayonlarida shaffoflik, xolislik va izchillikni ta’minlash, talabalarning bilim va ko‘nikmalarini belgilangan mezonlar asosida aniqlash uchun tegishli tashkiliy sharoitlar yaratilgan. Baholash natijalarini muntazam tahlil qilish orqali o‘quv jarayonidagi mavjud kamchiliklarni aniqlash, ta’lim sifatini oshirish va mutaxassislar tayyorlash samaradorligini takomillashtirish imkoniyatlari nazarda tutilgan. Umuman olganda, o‘quv jarayonini tashkil etish, talabalar bilimini baholash va sifatni nazorat qilish mexanizmlari belgilangan akkreditatsiya talablari hamda sifat mezonlariga muvofiq deb baholandi.

4-bob. Talabalar faoliyati yo‘nalishi

Talabalarni o‘qishga qabul qilish jarayonlari ochiqlik, shaffoflik va teng imkoniyatlar tamoyillari asosida tashkil etilgan. Hujjat topshirish muddatlari, ta’lim yo‘nalishlari, tanlov ko‘rsatkichlari, kirish imtihonlari va qabul natijalari hamda muhim e’lonlar universitetning rasmiy veb-sayti, ijtimoiy tarmoqlari va ommaviy axborot vositalari orqali muntazam e’lon qilib borilishi yo‘lga qo‘yilgan. O‘rganish davomida qabul jarayoniga oid tegishli hujjatlar va zarur ma’lumotlarning universitet rasmiy veb-saytida mavjudligi tasdiqlangan. Qabul parametrlarini shakllantirishda mehnat bozori holati, ish beruvchilarning mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyojlari va ta’lim yo‘nalishining rivojlanish istiqbollari inobatga olingan. Axborotlarning ochiq kanallar orqali o‘z vaqtida yetkazilishi abituriyentlarning qabul shartlari va tartiblari bilan tanishishi hamda teng imkoniyatlardan foydalanishi uchun zarur sharoitlarni

ta’minlagan. Umuman olganda, talabalarni qabul qilish jarayonlarining tashkil etilishi, axborot ochiqligi va qabul parametrlarini shakllantirish mexanizmlari belgilangan akkreditatsiya talablari hamda sifat mezonlariga muvofiq deb baholandi.

5-bob. Inson resurslari yo‘nalishi

Ta’lim dasturini samarali amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan professor-o‘qituvchilarni jalb etish, tegishli mutaxassislarni fanlarga biriktirish va kadrlar salohiyatini rivojlantirish mexanizmlari shakllantirilgan. Kadrlarni tanlash va ishga qabul qilish jarayonlari amaldagi ichki me’yoriy hujjatlar asosida tashkil etilgan bo‘lib, mutaxassislarning kasbiy malakasi va ilmiy-pedagogik salohiyatini inobatga olish nazarda tutilgan. Kompyuter lingvistikasi yo‘nalishining fanlararo xususiyatidan kelib chiqib, tilshunoslik va dasturlash sohalarida tegishli bilim hamda tajribaga ega pedagog kadrlar salohiyatidan foydalanishga e’tibor qaratilgan. Shu bilan birga, xorijiy mutaxassislar va amaliyotchi ekspertlarni jalb etish bo‘yicha maxsus tanlov mezonlari hamda hamkorlik mexanizmlarini alohida hujjatlashtirish zarurati aniqlangan. Mazkur jarayonlar hozirda umumiy ishga qabul qilish nizomi asosida tartibga solinib, ularni yanada takomillashtirish imkoniyatlari mavjudligi qayd etilgan. Umuman olganda, inson resurslarini shakllantirish, mutaxassislarni tanlash va kadrlar salohiyatidan foydalanish mexanizmlari belgilangan akkreditatsiya talablari hamda sifat mezonlariga muvofiq deb baholandi.

6-bob. Moddiy-texnik ta’minot yo‘nalishi

Ta’lim dasturini samarali amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan moddiy-texnik infratuzilma va o‘quv-uslubiy resurslar belgilangan talablar asosida shakllantirilgan. O‘quv binolari va auditoriyalarning sig‘imi talabalar soniga mutanosib bo‘lib, qurilish hamda sanitariya-gigiyena me’yorlariga muvofiqligi ta’minlangan. O‘quv va ilmiy adabiyotlar fanlarning mazmuni, o‘quv rejalari hamda shakllantirilishi belgilangan kasbiy kompetensiyalar asosida tanlangan. Adabiyotlar fondini shakllantirishda ilmiylik, dolzarblik, davlat ta’lim standartlariga muvofiqlik, amaliy ahamiyat va metodik qulaylik mezonlariga e’tibor qaratilgan. Korpus lingvistikasi va tabiiy tilni qayta ishlash yo‘nalishlarida ixtisoslashtirilgan dasturiy vositalar hamda hisoblash resurslaridan foydalanish imkoniyatlari talabalarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish va ilmiy izlanishlarini qo‘llab-quvvatlashning muhim tarkibiy qismi sifatida belgilangan. Mavjud moddiy-texnik va axborot-resurs ta’minoti nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish hamda ta’lim jarayoni samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan. Umuman olganda, moddiy-texnik

infratuzilma, o‘quv adabiyotlari bilan ta’minlanganlik va ta’lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlari belgilangan akkreditatsiya talablari hamda sifat mezonlariga muvofiq deb baholandi.

6. BAHOLASH YO‘NALISHLARI (BOB) BO‘YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to‘sqinlik qiluvchi):

Ta’lim dasturini yo‘lga qo‘yish uchun to‘sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo‘lgan juz’iy kamchiliklar:

- ✓Ta’lim dasturlarini baholashga oid rektor buyrug‘i va ayrim ichki hujjatlarning dasturga bevosita bog‘liqligini ko‘rsatuvchi materiallar to‘liq taqdim etilmagan.
- ✓Xorijiy mutaxassislar va amaliyotchi ekspertlarni jalb etishning maxsus tanlov mezonlari, tartibi va hamkorlik mexanizmlari alohida hujjatlashtirilmagan — faqat umumiy ishga qabul qilish nizomi mavjud.
- ✓Qabul to‘g‘risidagi ichki hujjatlarning rasmiy veb-saytdagi e’lonlariga havolalar ma’lumotnomalarda keltirilmagan.

7. TA’LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO‘YICHA TAVSIYALAR

- ✓Xorijiy mutaxassislar va amaliyotchi ekspertlarni jalb etish mezonlari, tartibi va hamkorlik mexanizmlarini alohida ichki me’yoriy hujjat bilan rasmiylashtirish.
- ✓Ta’lim dasturini baholashga oid ichki hujjatlarning dasturga bog‘liqligini ko‘rsatuvchi materiallarni to‘ldirish va havolalarini ma’lumotnomalarda keltirish.
- ✓Kompyuter lingvistikasi bo‘yicha xorijiy adabiyotlar, korpus resurslari va xalqaro ilmiy bazalardan foydalanishni kengaytirish.
- ✓Dual ta’lim tamoyillari doirasida IT-kompaniyalar bilan amaliyot hamkorligini shartnomalar asosida rivojlantirish.

8. TA’LIM DASTURI BO‘YICHA YAKUNIY XULOSA

60230400 – “Kompyuter lingvistikasi” bakalavriat ta’lim dasturi bo‘yicha taqdim etilgan hujjatlar, o‘quv-uslubiy materiallar, tashkiliy-boshqaruv tizimi, ta’lim jarayonini tashkil etish mexanizmlari, professor-o‘qituvchilar salohiyati hamda moddiy-texnik ta’minot kompleks o‘rganilib, belgilangan akkreditatsiya mezonlari asosida baholandi. Tahlil natijalariga ko‘ra, ta’lim dasturini boshqarish vakolatlari va mas’uliyatlari tegishli me’yoriy hujjatlar asosida belgilangan, 2026–2030-yillarga

mo‘ljallangan strategik rivojlanish rejasining ijrosini monitoring qilish mexanizmlari shakllantirilgan. Dastur mazmuni xalqaro ta’lim standartlari, davlat malaka talablari va mehnat bozori ehtiyojlariga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib, kredit-modul tizimi, dual ta’lim tamoyillari hamda tilshunoslik, dasturlash va sun’iy intellekt texnologiyalarining integratsiyasiga asoslangan. Talabalar bilimini baholash va o‘quv jarayoni sifatini nazorat qilish tartiblari amaldagi me’yoriy talablar asosida tashkil etilgan, qabul jarayonlarining ochiqligi va axborotlarning ommaviy kanallar orqali yetkazilishi ta’minlangan. Professor-o‘qituvchilar tarkibi, o‘quv binolari, adabiyotlar fondi va mavjud ta’lim resurslari dasturni amalga oshirish talablariga mosligi aniqlangan. Shu bilan birga, xorijiy mutaxassislar va amaliyotchi ekspertlarni jalb etish mexanizmlarini alohida hujjatlashtirish hamda ixtisoslashtirilgan resurslardan foydalanish imkoniyatlarini yanada rivojlantirish yuzasidan takomillashtirish yo‘nalishlari belgilangan. Baholash yakunlariga ko‘ra, oltita bob doirasidagi 27 ta akkreditatsiya mezonining barchasi bo‘yicha muvofiqlik aniqlangan, bildirilgan tavsiyalar esa dasturni amalga oshirishga to‘sqinlik qilmaydigan va uning sifatini yanada oshirishga qaratilgan takomillashtirish choralari sifatida qayd etilgan. Umuman olganda, 60230400 – “Kompyuter lingvistikasi” bakalavriat ta’lim dasturi belgilangan akkreditatsiya talablari va sifat mezonlariga MUVOFIQ deb baholandi.

9. TA’LIM DASTURI BO‘YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	03.08.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	6-son
Yakuniy qaror:	**AKKREDITATSIYADAN O‘TDI**

Guvohnoma (MAS № 0000488) haqiqiyligini NQAAE davlat akkreditatsiyasi reyestrida tekshirish uchun QR kod

NATIONAL QUALITY ASSURANCE AGENCY FOR EDUCATION

NQAAE

UNDER THE ADMINISTRATION OF THE PRESIDENT OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

+998 55 505 30 30

info@nqaae.uz
www.nqaae.uz

@nqaaeuz

@nqaaeuzbot